

OMMAVIY TADBIRLARNI O‘TKAZISHDA JAMOAT TARTIBI VA XAVFSIZLIGINI HUQUQIY TA‘MINLASHNING NAZARIY JIHATLARI

Quvondiqov Murodbek Ilhomiddin o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

4-bosqich kursanti

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini huquqiy ta‘minlashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar shuningdek, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini huquqiy ta‘minlash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlashni huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo‘llash amaliyoti hamda yuridik fandagi kontseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ommaviy tadbir, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, Milliy gvardiya, miting, yig‘ilish, qonun, fuqaro muhofazasi.

Аннотация. Научные заключения, предложения и рекомендации, направленные на совершенствование правового обеспечения общественного порядка и безопасности при проведении массовых мероприятий в Республике Узбекистан, а также общественные отношения, возникающие в процессе правового обеспечения общественного порядка и безопасности при проведении массовых мероприятий, нормативные правовые акты, правовое регулирование обеспечения общественного порядка и безопасности при проведении массовых мероприятий, практика их применения и концептуальные подходы в юридической науке и были проанализированы научно-теоретические взгляды.

Ключевые слова: Публичное мероприятие, общественная безопасность, общественный порядок, Национальная гвардия, митинг, собрание, закон, гражданская оборона.

Annotation. Scientific conclusions, suggestions and recommendations aimed at improving the legal provision of Public Order and security in the Republic of Uzbekistan when conducting public events, as well as the social relations arising in the process of legal provision of Public Order and security in the conduct of public events, regulatory legal documents that legally regulate public order and security in the conduct of public events, the practice of

Keywords: Public event, public safety, public order, National Guard, rally, assembly, law, civil defense.

Dunyo mamlakatlarida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash ko‘p qirrali va kompleks tavsiflanuvchi masala sifatida davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelayotgan muammolardan biri. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash bir tomondan, fuqarolarning erkin ravishda yig‘ilishlar o‘tkazishga bo‘lgan huquqlarini kafolatlash bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan ommaviy tadbirlarni ruxsatsiz va noqonuniy holda o‘tkazish davlat va jamiyat xavfsizligiga tahdid sifatida baholanadi. Xorij mamlakatlaridan AQSh (2020), Fransiya (2018), Ukraina (2018), Belarus‘ (2020), Qirg‘iziston (2018, 2020) va boshqa davlatlarda ommaviy tadbirlarni o‘tkazish, jumladan, ko‘cha namoyishlari va mitinglar bilan bog‘liq noxush holatlarning yuzaga kelganligi masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Jahon miqyosida ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishni tashkiliy-huquqiy tartibga solish muammolarini o‘rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa ommaviy tadbirlar vaqtida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy omillar ta‘sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tartibsizliklar, noqonuniy miting va ko‘cha yurishlari kabi murakkab jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish, mazkur omillar natijasida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfning oldini olish va ommani boshqarishning ilmiy asoslangan samarali mezonlarini ishlab chiqish, jamoat tartibi hamda fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash darajasini oshirish bilan bog‘liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

jami o'tkazilgan ommaviy tadbirlar 2022 yilda 74 811 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda ushbu ko'rsatkich 109 977 taga yetib, o'tgan yilga nisbatan 47 foizga oshgan. Tadbirlarda ishtirok etuvchilar ko'rsatkichining 40 259 051 nafardan (2022 yilda) 96 357 978 nafarga (2023 yilda) yetib, 58 foizga ko'payganligi mamlakatimizda ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda jamoat tartibi hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibining ommaviy buzilishini oldini olishda ichki ishlar organlarining boshqa huquqni muhofaza qiluvchi, davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligining ilmiy-nazariy asoslari va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etib, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish, ularning natijalarini huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etishni talab etadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan kuchli fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar nafaqat fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashni, balki barcha mulk shakllarini, korxonalar, muassasa, tashkilot va jamoat birlashmalarining manfaatlarini jinoyat va boshqa g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni yanada kuchaytirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratik umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatga va boshqa daxlsizlik huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" deyilgan.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash davlatning asosiy funksiyalaridan biri sifatida umume'tirof etilgan. Mazkur funktsiyani amalga oshirish maqsadida turli tashkiliy va huquqiy mexanizmlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Jumladan, respublikamizda har yili minglab siyosiy, madaniy va sport ommaviy tadbirlarini o'tkazilishi yurtimizdagi osoyishtalik va tinchlikni xukmronligidan dalolat beradi.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakatda va uning ma'muriy hududiy birliklarida jamoat tartibi va xavfsizligini samarali ta'minlash maqsadida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, Milliy gvardiya organlari tizimini tubdan isloh qilishga oid 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularning ijrosi doirasida:

- jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlovchi xizmatlar vazifa va funksiyalari maqbullashtirildi, tarkibiy tuzilmalar va ularning quyi bo'g'irlarda institutsional o'zgartirishlar amalga oshirildi ;

- transportda xavfsizlikni ta'minlash bo'linmalari qaytadan va turizm xavfsizligini ta'minlash xizmatlari yangidan tashkil etildi ;

- sutka davomida uzluksiz, xususan ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya saf bo'linmalari jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash kuchlarining kamida 70 foizi jalb qilingan holda soat 16:00 dan 8:00 ga qadar vaqt oralig'ida xizmat olib borish amaliyoti 2018 yil 1 iyuldan Toshkent shahrida , keyinchalik respublika viloyalari markazlari va katta shaharlarida joriy etildi ;

- Toshkent viloyatining bir-biridan ancha olisda va tarqoq holda joylashgan 7 ta shahar va 15 ta tuman ma'muriy-hududlarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning yangi tizimi 4 ta mintaqaviy hududlarga ajratilgan holda tashkil etildi ;

Bundan tashqari "Xavfsiz shahar" , "Xavfsiz turizm" , "Obod va xavfsiz mahalla" kontseptsiyalarining amalga oshirilayotganligi bugungi kunda mamlakatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy texnika va texnologiyalarga, jalb etilayotgan kuch va vositalarni boshqarishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan markazlashgan yangi tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning mustahkam, zamon talablariga moslashuvchan bo'lgan samarali mexanizmini yaratish o'z navbatida mazkur faoliyatning nazariy asoslarini tahlil etilishini taqozo etadi.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash mexanizmi ishchanligini ta'minlash uchun uning huquqiy asoslarini, ma'muriy-huquqiy tartibga solinishini, tarkibiy qismlarini, amalga oshiruvchi sub'ektlar faoliyatini, jamoat xavfsizligini ta'minlash obyektlarini, amalga oshirilishi davriyligi, vaqti, tartibi va xususiyatlarini tahlil etilishi lozim.

Ta'kidlash joizki, «jamoat tartibi» va «jamoat xavfsizligi» tushunchalarining mohiyatini tahlil qilish ular bir-biridan farq qilsada, ularni ta'minlash o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi hamda birini ikkinchisidan ajratish juda ham murakkab bo'lgan jarayon ekanligini namoyon qiladi. Jamoat tartibini saqlash bu bir vaqtning o'zida fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini va jamoat xavfsizligini ta'minlash tushunchalarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Lekin «fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi» va «jamoat xavfsizligi» tushunchalari «jamoat tartibi» tushunchasi bilan bog'liq bo'lsada, o'zaro bir-biridan farq qiladi.

Davlat va huquq masalalari bo'yicha mavjud bo'lgan adabiyotlarda jamoat tartibi tushunchasini ikki, ya'ni keng va tor ma'nolarda sharhlash qabul qilingan.

Tor ma'noda sharhlashni qabul qilgan olimlarning fikricha, jamoat tartibi – bu murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy hodisadir. Jamoat tartibi organlari va jamoatchilik o'rtasida ma'muriy huquqiy, jinoiy huquqiy hamda ijtimoiy huquqiy normalarni amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan tizim – ijtimoiy munosabatlar tizimidir.

X.T.Odilqoriyev “Davlat va huquq nazariyasi fani doirasida huquq-tartibot va jamoat tartibi tushunchalaridan foydalaniladi ularning asosida davlatda o'rnatilgan rejim tavsiflanadi, shu bilan birga bu davlatning huquqiy tartibotni saqlash funksiyasini tashkil etadi” degan fikrni ilgari surgan.

Huquqning umumiy nazariyasi qoidalaridan kelib chiqilsa, keng ma'noda jamoat tartibi deganda, mazkur jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning barcha tizimi tushuniladi. Keng ma'nodagi jamoat tartibining mazmuni ijtimoiy munosabatlarning barcha tizimlarini o'z ichiga olib, davlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari hamda odamlarning xulq-atvorlari shakllanishiga oid iqtisodiy va siyosiy tuzilma hamda jamiyatning barcha sohalarida amal qiladigan ijtimoiy normalarga (huquq normalariga), printsiplarga, g'oyalarga va qadriyatlarga rioya qilish orqali shakllangan jamoat tartibini anglatadi. Mazkur ma'noda jamoat tartibi davlatning barcha ijtimoiy institutlari muhofazasining ta'siri ostidagi ob'ekti hisoblanadi.

Jamoat tartibi tushunchasi ni keng ma'noda talqin qilish bo'yicha yuqorida keltirilgan qoidalar mazkur tushunchani tasniflashda ma'lum ahamiyatga ega, ammo uning mazmuniga kiritilgan hulqqa oid qoidalar tizimi sifatidagi huquq talqini, qonunlarni yo'riqnomalar bilan almashtirishga yo'l qo'yadigan qonunchilikni keng talqin qilinishi davlat va huquq to'g'risidagi zamonaviy tasavvurlarni o'zida to'liq aks ettirmaydi.

Jamoat tartibi tushunchasini keng talqin qilish bilan birga qonunchilikda va yuridik adabiyotlarda mazkur tushuncha tor ma'noda ham ishlatiladi. Bunda u ijtimoiy munosabatlarning barcha tizimini emas, balki faqat uning faoliyatining turli sohalarini tahlil qilishda va qonunga xilof tajovuz ob'ektini aniqlashda qo'llaniladi.

Jamoat tartibi tushunchasi tor (bevosita) ma'nodagi ta'rifi jamoat tartibini muhofaza qilishda ishtirok etadigan ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya bo'linmalari, prokuratura, ma'muriy komissiyalar, sud va vakolatli organlarning faoliyatida o'z amaliy ahamiyatiga ega bo'lib, ular mazkur sohalarida shakllanib borayotgan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladigan ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olishga qaratilgandir. Yuqoridagilarning tahlilidan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash davlatning asosiy funktsiyalaridan birini tashkil qiladi.

Shu bilan birga jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash huquqiy kategoriyalari umuman davlat xavfsizligini ta'minlashning faqat cheklangan va muayyan sohalarini tartibga solishini yoddan chiqarmaslik zarur. Bu esa ommaviy tadbirlar o'tkazishda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashning ishchan mexanizmlari katta ahamiyat kasb etadi. “Ommaviy tadbir”, “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” atamallari keng tarqalgan; ular ham halqaro–huquqiy hujjatlarda ham turli mamlakatlarning milliy qonunchiligida, ham yuridik adabiyotlar da ko'p ishlatiladi.

Ta'kidlash joizki mamlakatimiz qonunchiligida va huquqiy fan doirasida mazkur tushunchalardan keng foydalanishiga qaramay, yuridik adabiyotlarda hamon ularni ta'riflashga yagona yondashuv ishlab chiqilmagan . Bunday yondashuv “ommaviy tadbir”, “jamoat tartibi”, “jamoat

xavfsizligi” kabi tushunchalarning mazmun–mohiyatini ochib berish va ularning nazariy ta’riflarini shakllantirishni taqazo qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamoat tartibini ta’minlash masalalarini tartibga soluvchi bir necha qonun va o’ndan ortiq normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilingan .Ularning normalarini tahlil etish jamoat tartibi va xavfsizligi tushunchasi va uning mazmuni berilmaganligini namoyon etadi.

«Jamoat tartibi» va «jamoat xavfsizligi» tushunchalarini tahlil qilish va uning mohiyatini yoritish uchun dastlab unda ifodalangan so’zlarning lug’aviy ma’nosiga e’tibor berish lozim. Shu nuqtai nazardan, “O’zbek tilining izohli lug’ati” da «jamoat xavfsizligi» va «jamoat tartibi» bilan bog’liq so’zlarga va tushunchalarga berilgan izohlarga e’tibor berilsa, ularning quyidagi ma’nolarda ifodalanishini ko’rish mumkin:

jamoat – arabcha so’z bo’lib, birlashma, uyushma, guruh, ko’pchilikka, ya’ni ommaga tegishli kabi ma’nolarni anglatadi;

tartib – arabcha so’z bo’lib, tayyorlash, tashkil etish, intizom, moyillik, rag’bat, reja, ish-harakat, chora-tadbir va shu kabilarning rioya qilinadigan ma’lum izchillik, reja, qonun-qoida va shu qonun-qoidalarga javob beradigan holat ma’nolarini anglatadi;

saqlash – arabcha saqlamoq so’ziga sinonim bo’lib, tashqi ta’sirdan muhofaza qilmoq, rioya qilmoq, muayyan holatga amal qilmoq ma’nolarini anglatadi;

xavfsizlik – bu xavf-xatarining yo’qligi, xavf bo’lmagan holat ma’nosini anglatadi;

ta’minlash – o’zagi arabcha «ta’min» so’zidan olingan bo’lib, ta’min qilmoq, biror narsaning amalga oshishi, ro’yobga chiqishi, muhayyo bo’lishi uchun zarur sharoit yaratmoq ma’nosini anglatadi;

jamoat tartibi – axloq, ma’naviyat, urf-odat va an’analar normalariga asoslangan jamoat hayotining ma’lum bir tartibini belgilaydigan, fuqarolarning jamoat joylarida birga bo’lganda yurish-turish huquqiy norma va xulq-atvor qoidalari majmui;

jamoat xavfsizligi – jamoat xavfsizligi ob’ektlarining yuzaga kelishi mumkin bo’lgan va ularga zarar keltiradigan xavf va tahdidlardan himoyalanganligi holati tushuniladi .

Shu bilan birga milliy va xorij ilmiy adabiyotlarni o’rganish ham jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash tushunchasi bo’yicha yagona fikr va yakdillik mavjud emasligini namoyon etadi. Jumladan, Fransiyalik olim Jorj Vedel “Xavfsizlik – jamoa yoki ayrim shaxslarga tahdid solayotgan xavf-xatarlarni oldini olishga qaratilgan faoliyat bo’lib, o’z ichiga davlat xavfsizligiga tahdidlardan tortib oddiy baxtsiz xodisalarga yo’l qo’ymaslikni qamrab oladi” degan fikrni ilgari surgan. Avstriyalik olim I.Peters “Jamoat xavfsizligi deganda shaxs tomonidan jamiyatda yurish-turishning barcha tartibga solingan va yozilmagan qoidalarga rioya qilishi, shuningdek davlat va fuqarolarning o’zaro bir makonda faoliyat yuritishi va yashashining asosiy sharti bo’lgan qoidalarning majmui tushuniladi” , degan tushuncha bergan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, bugungi globallashuv davrida jamoat xavfsizligini ta’minlash, aholi va insonlar tinchligini asrash mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqaroning asosiy va birlamchi ustuvor vazifasi hisobladi. Shunday ekan, har bir O’zbekiston Respublikasi fuqarosi o’zini bu ustuvor vazifani bajarishda ma’suliyatli ekanligini his qilgan holda yashashi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o’tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida 205-son qarori
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023 y.
3. O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksi. 22.09.1994 y.
4. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 22.09.1994 y.
5. Sh.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” – T., “O’zbekiston” 2017., - 48 b